Qurilish korxonalarida investitsiyalarni boshqarishning xorijiy tajribalari va ularni mamlakatimizda foydalanish yo'llari	894
Karimov Inomjon Ortikbaevich	



QURILISH KORXONALARIDA INVESTISIYALARNI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALARI VA ULARNI MAMLAKATIMIZDA FOYDALANISH YO‘LLARI

Karimov Inomjon Ortikbaevich

ORCID: 0000-0002-9093-5218

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti,

“Iqtisodiyot va ko‘chmas mulk” kafedrası dosenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada qurilish korxonalarida investisiyalarni boshqarish bo'yicha AQSh, Germaniya, Yaponiya kabi rivojlangan davlatlarning samarali tajribalari tahlil qilingan. Xorijiy amaliyotda investisiya loyihalarini tanlash, risklarni boshqarish, samaradorlikni baholash hamda axborot texnologiyalaridan foydalanishga katta e'tibor qaratilgan. Shu asosda, O'zbekistonda qurilish sohasida investisiyalarni samarali boshqarishda xorij tajribalarini joriy etishning ustuvor yo'nalishlari va amaliy takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: investisiya boshqaruvi, qurilish korxonasi, xorij tajribasi, investisiya loyihasi, samaradorlik, tavakkalchilik.

Abstract: This article analyzes the effective investment management practices in construction companies of developed countries such as the USA, Germany, and Japan. Foreign experience highlights the importance of project selection, risk management, efficiency evaluation, and the use of information technologies. Based on this analysis, the paper proposes priority directions and practical recommendations for applying international investment management practices in Uzbekistan's construction sector.

Key words: investment management, construction company, foreign experience, investment project, efficiency, risk.

Аннотация: В данной статье рассматривается опыт эффективного управления инвестициями в строительных компаниях развитых стран, таких как США, Германия и Япония. Особое внимание в зарубежной практике уделяется отбору инвестиционных проектов, управлению рисками, оценке эффективности и применению информационных технологий. На основе анализа зарубежного опыта предложены приоритетные направления и практические рекомендации по внедрению эффективного управления инвестициями в строительной отрасли Узбекистана.

Ключевые слова: управление инвестициями, строительная компания, зарубежный опыт, инвестиционный проект, эффективность, риски.

KIRISH

Qurilish tarmog'i iqtisodiy rivojlanishda muhim o'rin tutib, mamlakatlarning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu sohaga etakchi investisiyalarni jalb qilish va ularni samarali boshqarish iqtisodiyotning mustahkamlanishini, yangi ish o'rinlarini yaratishni va infratuzilmani rivojlantirishni ta'minlaydi. Shuningdek, qurilish tarmog'idagi investisiyalarni boshqarish davlatning iqtisodiy siyosati, moliyaviy-huquqiy tizimi va investisiya muhitiga bog'liq.

Bugungi kunda qurilish korxonalarida investisiyalarni boshqarish masalasi o'z dolzarbligini yo'qotgan emas. O'zbekistonda qurilish tarmog'ida samarali investisiya boshqaruvi uchun bir qator islohotlar amalga oshirilgan bo'lsada, bu sohada muammolar mavjud. Mazkur muammolarning echimini izlashda xorijiy tajribalar muhim ahamiyatga ega. Har bir davlatning iqtisodiy sharoitlari, siyosiy tizimi va moliyaviy imkoniyatlari o'zining investisiyalarni boshqarish usullariga ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, xorijiy tajribalardan foydalanish O'zbekistondagi qurilish korxonalarini rivojlantirish va investisiyalarni samarali boshqarish uchun muhim ishonarli yo'nalish hisoblanadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiyotga investisiyalarni jalb etish va ulardan samarali foydalanishning nazariy jihatlarini qator olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, xorij olimlaridan J.M.Keyns, A.Marshall, P.Samuelson, V.M.Fridman, K.R.Makdonald, A.I.Dedikov, G.Naydenov va boshqalar investisiyalar va ularning samaradorligi to'g'risidagi nazariy konsepsiyalar ishlab chiqqanlar. O'zbekiston iqtisodiyotiga investisiyalarni jalb etish masalalari S.S.G'ulomov, A.V.Vaxabov, D.G'ozibekov, N.X.Xaydarov, Sh.G.Yuldoshev va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan. Bu ishlarda asosan xorijiy investisiyalarni jalb etishni kuchaytirishning nazariy jihatlarini, bu jarayondagi moliyaviy-soliq munosabatlari yoritilgan. O'zbekiston iqtisodiyotining hududiy rivojlanishini tartibga solish masalalari Sh.B. Imomovning ilmiy ishlarida ko'rib chiqilgan.

TADQIQOT METODOLGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, analiz, sintez, induksiya, deduksiya usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Investisiyalarni boshqarish – bu qurilish tarmog'ining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillardan biri bo'lib, xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni mamlakatimiz sharoitiga moslashtirish iqtisodiy o'sishga katta hissa qo'shadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmonining 26-maqсадida "Mamlakatda investisiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investisiyalarni jalb etish choralari ko'rish" degan maqsadlar belgilangan. Buni amalga oshirishda «pastdan-yuqoriga» tamoyili asosida yangi boshqaruv tizimini joriy etish orqali investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning manfaatlarini himoya qilish va samarali ishlashini ta'minlash nazarda tutiladi. Shuningdek, xorijiy tajribalardan foydalanib, ularni O'zbekistondagi qurilish korxonalariga moslashtirish orqali, investisiyalarni boshqarishning samaradorligini oshirish mumkin. Bu joriy tizimning muvaffaqiyatli ishlashiga hamda mamlakatning investisiya potensialini maksimal darajada rivojlantirishga xizmat qiladi.¹

Rivojlangan mamlakatlarda investision davr o'rtacha 10 yildan oshmaydi. Sanoat investision loyihasini (birinchi fazasini) realizatsiya qilishning o'rtacha davomiyligi 10 yildan kam bo'lmas edi: 2,0-2,5 yil loyihaoldi ishlar va loyihalashtirish; 5-8 yil qurilish va 3,0 - 2,5 yil faoliyatga tushirish va to'liq loyihaviy quvvatni o'zlashtirish. Yaratilgan sanoat ishlab chiqarishining me'yoriy ekspluatatsion fazasi o'rtacha 25 yil davom etar edi, me'yordan yuqorisi esa yana 10-15 yil. AQShda shu kabi to'liq investision siklning davomiyligi o'z ichiga quyidagilarni oladi: 3 yil - qurilish, 7 yil - ekspluatatsiya, qoplanish muddati birinchi uch yil (1-jadval).

1- jadval. Na'munaviy tipdagi sanoat binolarini yaratishdagi investision davrning davomiyligi (bir qavatli binolar/xafta)².

Davrning bosqichi	AQSh	Germaniya	Fransiya	Buyuk Britaniya
Loyihaoldi asoslash, qarorni qabul qilish va qurilishga ruxsat olish.	4,5	12	16	26
Arxitektura-qurilish chizmalarini tayyorlash	6	12	10	20
Ishlar turlari va moddiy resurslarning xususiyatlari bo'yicha qurilish uchun xarajatlar smetasini tayyorlash	6,5	17	10	11
Qurilish	23	29	30	57
Fazalarni birlashtirmasa, investision davr	40	70	66	114
Investision davrning haqiqiy davomiyligi	33	56	56	96
Birlashtirish koeffitsienti, %	17,5	20,0	15,2	15,6

1 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги "2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги ПФ-60-сонли фармони

2 Тадқиқотлар асосида муаллиф томонидан ишлаб чиқилди



Qurilish tarmog'ida investisiyalarni boshqarishning xorijiy tajribalari turli mamlakatlarda turlicha ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan (2-jadval).

2- jadval. Xorijiy davlatlarda qurilish tarmog'ida investisiyalarni boshqarish tajribalari.

Davlatlar	Tajribalari
AQSH	QShda qurilish tarmog'iga investisiyalarni boshqarishda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik (PPP – Public-Private Partnership) keng qo'llaniladi. Shuningdek, ipoteka bozori, qurilish korxonalarini subsidiyalash, soliq imtiyozlari kabi mexanizmlardan foydalaniladi. Davlat infratuzilma loyihalariga katta ahamiyat beradi va bu orqali qurilish tarmog'ini rivojlantirishga turtki beradi. Bundan tashqari, AQSh qurilish bozorida investisiya fonlari va loyiha boshqaruv korxonalari katta rol o'ynaydi. Keng ko'lamli infratuzilma loyihalari realizatsiya qilinishi uchun xususiy sektor va davlatning qo'shma mablag'lari jalb qilinadi.
Evropa Ittifoqi	Evropa davlatlarida qurilish investisiyalarini boshqarishda ekologiya va barqarorlik masalalariga katta e'tibor qaratiladi. Masalan, Germaniyada «yashil texnologiyalar» asosidagi qurilish loyihalariga investisiyalarni jalb qilish keng tarqalgan. Davlat va Evropa Ittifoqi fondi tomonidan qurilish korxonalariga moliyaviy ko'maklar va uzoq muddatli kreditlar ajratiladi. Fransiya va Niderlandiyada esa qurilishda energiya tejankor texnologiyalar qo'llaniladi. Davlat tomonidan qurilish korxonalariga grantlar taqdim etiladi hamda ekologik me'yorlarga javob beradigan loyihalar ustuvorlik bilan qo'llab-quvvatlanadi.
Xitoy	Xitoyda qurilish tarmog'iga investisiyalarni boshqarishda davlatning tartibga solish siyosati muhim o'rin tutadi. Xususiy sektorga nisbatan davlat tomonidan kredit va subsidiyalar ajratilishi, zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalarni keng joriy etish hisobiga qurilish korxonalariga yordam beriladi. Infratuzilmani rivojlantirish uchun «Bir kamar – bir yo'l» tashabbusi doirasida xalqaro hamkorlik keng yo'lga qo'yilgan. Bundan tashqari, Xitoy qurilish tarmog'ida davlat kafolatlari va mulkiy bozorning tartibga solish mexanizmlaridan samarali foydalanadi. Yangi shaharlarni qurish va infratuzilmani modernizatsiya qilish maqsadida davlat va xususiy sektor o'rtasida uzviy hamkorlik amalga oshiriladi.
Yaponiya tajribasi	Yaponiya qurilishda innovatsiya va resurs samaradorligiga yo'naltirilgan investisiya boshqaruvini qo'llaydi. «Lean Construction» usuli bilan resurs tejash va sifatli qurilishni ta'minlashga erishiladi. Shuningdek, davlat tomonidan xususiy sektorga infratuzilma loyihalarida moliyaviy yordam ko'rsatiladi. Yaponiyada qurilish tarmog'ida texnologiyalardan samarali foydalanish uchun davlat tomonidan investisiya siyosatlarini ishlab chiqilgan. Yaponiya banklari qurilish loyihalarini moliyalashtirish uchun maxsus kredit dasturlarini taklif etadi.

Har bir davlatning iqtisodiy sharoitlari va ijtimoiy-siyosiy holatiga mos ravishda investisiyalarni jalb qilish va ularni samarali boshqarish usullari o'rganilgan. Xorijdagi tajribalar asosan quyidagi omillarga bog'liq bo'ladi:

1. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va stimullashtirish. Qurilish tarmog'ida davlatning rolini inobatga olish muhim. Masalan, AQSh va Germaniya kabi rivojlangan mamlakatlarda davlat qurilish va infratuzilmani rivojlantirish uchun har yili katta miqdordagi investisiyalarni jalb qiladi. Bu mamlakatlarda davlat tomonidan qurilish tarmog'ini qo'llab-quvvatlash uchun soliq imtiyozlari va grantlar taqdim etiladi. Bu usul investorlarni jalb qilish va ularga katta miqdordagi kapitalni kiritishga yordam beradi.

Davlatning qurilish tarmog'idagi qo'llab-quvvatlash usullaridan biri soliq imtiyozlari va grantlarni taqdim etishdir. AQSh va Germaniyada davlat qurilish loyihalarini uchun soliq imtiyozlari va grantlar orqali investisiyalarni jalb qilishga qaratilgan maxsus dasturlarni ishlab chiqadi. Masalan, AQShda federol hukumat ba'zi qurilish loyihalarini qo'llab-quvvatlash uchun soliq imtiyozlari, grantlar va moliyaviy subsidiyalar taklif qiladi. Bu mablag'lar, eng avvalo, ekologik barqaror qurilish, energiya samaradorligi va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga yo'naltirilgan loyihalar uchun ajratiladi.

Germaniyada esa davlat tomonidan davlat qarzi, hamkorlikdagi loyihalar va grantlar orqali qurilish loyihalarini moliyalashtirish amalga oshiriladi. Hukumatning bu turdagi qo'llab-quvvatlashi, qurilish tarmog'idagi xususiy investorlarni jalb qilishga yordam beradi. Davlatning yo'nalishlaridagi dasturlar, shaxsiy investisiyalar bilan birga, yuqori rentabellik va uzoq muddatli rivojlanish uchun imkoniyatlar yaratadi.

Davlat tomonidan bunday stimullashtirish nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga katta hissa qo'shish, balki infrastrukturaning sifatini oshirishga ham yordam beradi. Shuningdek, davlatning qo'llab-quvvatlashi xususiy sektorni rag'batlantiradi va ularning moliyaviy resurslarini samarali ishlatishga imkon yaratadi.

Bu usullar olingan iqtisodiy natijalarga ko'ra, mamlakatlarda qurilish tarmog'ining o'sishini va rivojlanishini rag'batlantirishda samarali bo'ladi. Davlat tomonidan qurilish tarmog'ini qo'llab-quvvatlashning turli shakllari qurilish loyihalariga yuqori darajadagi ishonch va sarmoya kiritishga yordam beradi.

2. Xorijiy investisiyalarni jalb qilish. Jahon amaliyotida qurilish tarmog'ida xorijiy investisyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Xorijiy sarmoyalar, ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlarda iqtisodiy o'sish va



qurilish tarmog'ini rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. Bu investisiyalar qurilish, infratuzilma va turizm sohasida jadal rivojlanishga olib kelishi mumkin. Xorijiy sarmoyalarni jalb qilishning o'ziga xos xususiyatlari va afzalliklari bor. Ular, bir tomondan, iqtisodiyotni rivojlantirishga yordam beradi, ikkinchidan, yangi texnologiyalarni olib kelishga va mahalliy bozorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratishga sabab bo'ladi.

Misol uchun, Singapurda xorijiy sarmoyalar qurilish va turizm sohasini rivojlantirishda keng foydalanilgan. Singapur, mamlakat sifatida, xorijiy investorlar uchun qulay ishbilarmon muhiti va investisiyalarning samarali boshqarilishini ta'minlashga katta e'tibor qaratadi. Davlatning siyosati va moliyaviy imkoniyatlari orqali, Singapur qurilish va turizm sohasini rivojlantirish uchun xorijiy investisiyalarni jalb qilgan. Xorijiy investorlar uchun qulay soliq imtiyozlari, engillashtirilgan ruxsatnoma jarayonlari va moliyaviy subsidiyalar talab qilinadi.

Singapurda davlat xorijiy investorlar uchun huquqiy ramkani yaratib, investisiyalarning muammolarsiz va samarali boshqarilishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, davlat o'zining asosiy infratuzilmasini rivojlantirish va yangilash uchun xorijiy kapitalni jalb qiladi. Singapurning bu sohadagi siyosati, muayyan loyihalarga yo'naltirilgan investisiyalarni muvaffaqiyatli jalb qilish va ularni moliyalashtirish uchun katta imkoniyatlarni yaratadi. Bu esa, o'z navbatida, mahalliy iqtisodiyotning o'sishini va turizm sektoridagi rivojlanishni ta'minlaydi.

Xorijiy sarmoyalar jalb qilish mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi uchun asosiy omillardan biri bo'lib, ular nafaqat qurilish tarmog'ida, balki turizm va infrastruktura loyihalarida ham muhim rol o'ynaydi. Bu usul mamlakatda yangi ish o'rinlari yaratish, texnologiyalar va mutaxassislar bo'yicha malakalarni oshirishga yordam beradi. Shuningdek, xorijiy sarmoyalar aholining turmush darajasini oshirish va mamlakatni jahon bozorida raqobatbardoshligini kuchaytirishga yordam beradi.

3. Moliyaviy innovasiyalar. Xususiy va davlat hamkorligi (Public-Private Partnership, PPP) iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda va qurilish tarmog'ida samaradorlikni oshirishda muhim mexanizm hisoblanadi. Bu model davlat va xususiy sektorning resurslari va imkoniyatlarini birlashtirib, jamoat infratuzilmasini rivojlantirish va yirik loyihalarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Singapur va Britaniyaning muvaffaqiyatli tajribasini inobatga olgan holda, O'zbekistonda ham PPP modeli orqali qurilish loyihalarini moliyalashtirish va amalga oshirish samaradorligini oshirish mumkin.

Singapur tajribasi: Singapurda xususiy va davlat hamkorligi qurilish tarmog'ida keng qo'llaniladi. Davlat yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirish uchun xususiy investorlarni jalb qiladi va ularga qulay shart-sharoitlar yaratadi. Masalan, transport infratuzilmasi va ijtimoiy inshootlar qurilishi uchun xususiy sektor bilan hamkorlik yo'lga qo'yiladi. Davlat, o'z navbatida, huquqiy kafolatlar va moliyaviy yordam taklif qilsa, xususiy sektor resurslar va innovasion texnologiyalar bilan ta'minlaydi. Bunday hamkorlik tufayli, Singapur infratuzilmasi yuqori sifatga erishdi va investisiyalarning samarali boshqarilishini ta'minladi.

Britaniya tajribasi: Britaniyada PPP modeli «Private Finance Initiative» (PFI) orqali amalga oshiriladi. Bu model davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikda infratuzilma ob'ektlarini yaratish va boshqarishni nazarda tutadi. Xususiy sektor ob'ektlarni qurish, moliyalashtirish va ba'zi hollarda boshqarish uchun mas'ul bo'ladi, davlat esa xizmatlarni kafolatlangan ravishda ta'minlaydi. Bu usul Britaniyada jamoat ob'ektlarining sifatini yaxshilash va davlat byudjetini tejashda katta yutuqlarga olib keldi.

4. Investisiyalarning barqarorligini ta'minlash. Qurilish tarmog'ida investisiyalarning barqarorligini ta'minlash iqtisodiy rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi. Buni amalga oshirish uchun uzoq muddatli strategik rejalar ishlab chiqish, ekologik va ijtimoiy jihatlarini hisobga olish, shuningdek, zamonaviy investisiya siyosatini joriy etish talab etiladi. Kanada va Yaponiyaning muvaffaqiyatli tajribasi bu sohadagi amaliy echimlarni o'rganish va ularni qo'llash uchun yaxshi namuna bo'lib xizmat qiladi.

Kanada tajribasi. Kanadada qurilish tarmog'ida investisiyalarning barqarorligini ta'minlash uchun ekologik barqarorlik konsepsiyasiga alohida e'tibor qaratilgan. Mamlakat qurilish loyihalarini amalga oshirishda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy qilishni afzal ko'radi. Kanadada qurilish korxonalari uchun quyidagi mexanizmlar joriy etilgan:

1. Ekologik standartlar va talablar: Loyihalar ekologik me'yorlarga javob berishi shart. Bu qurilish tarmog'idagi sarmoyalarning barqarorligini ta'minlaydi.

2. Davlat subsidiyalari va imtiyozlari: Davlat ekologik jihatdan barqaror loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun moliyaviy yordam ko'rsatadi.

3. Ijtimoiy foydali investisiyalar: Ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarda, masalan, ijtimoiy uy-joy qurilishida davlat va xususiy sektor hamkorligi keng qo'llaniladi.

Yaponiya tajribasi. Yaponiyada qurilish loyihalarini amalga oshirishda ijtimoiy mas'uliyat va ekologik barqarorlik prinsiplari asosiy o'rin egallaydi. Mamlakatda uzoq muddatli strategik rejalar ishlab chiqilib, ular quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi:

1. Ekologiyaga e'tibor: Qurilish loyihalarida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va energiya samaradorligini oshirish texnologiyalari joriy etiladi.

2. Ijtimoiy jihatlarini hisobga olish: Loyihalar aholi turmush darajasini yaxshilash va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan.



3. Innovasion texnologiyalar: Yaponiya qurilish tarmog'ida innovasiyalarni joriy etish orqali investisiyalarning samaradorligini oshirishga erishgan. Bunda «aqli» binolar qurilishi va resurslarni tejash texnologiyalari katta ahamiyatga ega.

O'zbekistonda xususiy va davlat hamkorligini rivojlantirish qurilish tarmog'ida quyidagi afzalliklarni ta'minlashi mumkin:

1. Moliyaviy resurslarni jalb qilish: Davlat byudjetiga orttiqcha yuklamasiz yirik loyihalarni moliyalashtirish imkoniyati paydo bo'ladi.

2. *Innovasiyalarni kiritish: Xususiy sektor yangi texnologiyalar va ilg'or boshqaruv usullarini joriy etish orqali qurilish sifatini oshiradi.*

3. *Iqtisodiy samaradorlik: Har ikki sektorning imkoniyatlarini birlashtirish orqali loyihalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish ta'minlanadi.*

4. *Qulay huquqiy muhit yaratish: Xususiy sektorni jalb qilish uchun soliq imtiyozlari va huquqiy kafolatlar tizimi joriy etilishi zarur.*

O'zbekistonda PPP modelini joriy etish, ayniqsa, transport infratuzilmasi, uy-joy qurilishi, turizm va ijtimoiy ob'ektlar rivojlanishida katta imkoniyatlar yaratadi. Bunday hamkorlik nafaqat iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shadi, balki xususiy investorlar uchun ishonchli va samarali muhit shakllantiradi.

MDH va xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ob'ektlarni barpo etishda eng yuqori samaradorlikka loyiha-qurilish birlashmalari faoliyati orqali erishish mumkin. Bu birlashmalarning asosiy ustunligi shundaki, ular yagona tashkilot tarkibida ham loyiha boshqaruvini, ham qurilish jarayonini birgalikda olib borish imkonini beradi. Bunday yondashuv loyihalashtirish hujjatlarini tayyorlash va qurilish ishlarini parallel ravishda amalga oshirishni nazarda tutadi, bu esa investision loyihalarni jadalroq bajarishga olib keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Korxonalar darajasidagi investision faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, investision faoliyatni boshqarish quyidagi tamoyillarga asoslanishi lozim.

1. Investision strategiyaning korxonaning uzoq muddatli va joriy maqsadlariga muvofiqligi, investision faoliyatni uzoq muddatli va o'rta muddatli rejalashtirishning uzlyuksizligini ta'minlash. Ushbu tamoyilning amalga oshirilishi korxonaning rivojlanish yo'nalishlari o'rtasidagi muvofiqlikni belgilaydi, maqsadlar o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etadi va korxonaning umumiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

2. Korxonaning investision faoliyati uning moliyaviy va investision resurslariga mos bo'lishi, shuningdek, korxonaning moliyaviy barqarorligini va balans likvidligini ta'minlashi zarur. Ushbu tamoyil tanlanadigan investisiya ob'ektlarini ularni ta'minlash imkoniyatlari bilan cheklashni anglatadi.

3. Investisiyalarning rentabelligi va xavfi o'rtasidagi muvozanatni optimallashtirish, jiddiy moliyaviy yo'qotishlar va zararlarni oldini olish maqsadida. Ushbu tamoyil, korxonaning investisiya strategiyasiga muvofiq, rentabellik va xavf o'rtasidagi muvozanatni saqlashni anglatadi. Buni amalga oshirish uchun investisiya portfelini optimallashtirish va investisiya ob'ektlarini diversifikatsiya qilish jarayoni o'tkaziladi.

4. Investisiyalarning rentabelligi va likvidligini optimallashtirish. Ushbu tamoyilni amalga oshirish, korxonaning moliyaviy barqarorligi va to'lov qobiliyatini ta'minlash uchun rentabellik va likvidlik o'rtasidagi belgilangan proporsiyalarni saqlashni anglatadi.

5. Investisiya portfelini boshqarish imkoniyatini ta'minlash, ya'ni korxonaning investisiyalar holatini (rentabellik, xavf, likvidlik va boshqalar) kuzatish imkoniyatlariga mos ravishda investisiyalar soni va murakkabligini cheklash va portfelni o'z vaqtida diversifikatsiya qilish. Ushbu tamoyilni amalga oshirish, investisiya ob'ektlarini kadrlar salohiyati va mablag'larni tezkor qayta investisiya qilish imkoniyatlariga mos ravishda ta'minlashni anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Appeal of the president of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Supreme Assembly 2020yil 24 January.
2. Discussion of the introduction of a new step-by-step system for attracting foreign investment at the video projector meeting held on January 8, 2019, chaired by the president of our country.
3. K.I. Ortikbaevich. Attraction investment projects to the construction industry and improving their efficiency. 2021. SAARJ Journal on Banking & Insurance Research 10 (1), 47-53
4. N Yusupdzhanova, I Karimov. Investment projects in the field of construction materials production..2020. Theoretical & Applied Science, 18-21
5. Inomjon Ortikbaevich Karimov. The role and importance of the time factor in determining the effectiveness of Investment Management in construction enterprises. Journal of interdisciplinary innovation and scientific research in Uzbekistan. 2 issue. 2023/11/21
6. Karimov Inomjon Ortikbayevich. Factors affecting the effectiveness of investment management. Synergy: Cross-Disciplinary Journal of Digital Investigation (2995-4827). Vol. 2 No. 4 (2024)



7. Иномжон Ортикбаевич Каримов, Курилиш корхоналарида инвестицион лойиҳалар самарадорлигига таъсир этувчи омиллар. Journal of new century innovations. 2023/3/24
8. Karimov, Inomjon, and Gulandon Orifqulova. "IPOTEKA KREDITINI TASHKIL ETISHNING ILG 'OR XORIJIY TAJRIBALARI." SAMBHRAM XABARNOMASI 1.1 (2024): 432-435.
9. Каримов И. О. ҚУРИЛИШ ТАШКИЛОТЛАРИДА ИНВЕСТИЦИЯ ЛОЙИҲАЛАР САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШ УСУЛЛАРИ // "UCHINCHI RENESSANS: ILM-FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTI ISTIQBOLLARI" mavzusidagi № 1-sonli ko'p tarmoqli, ilmiy onlayn konferensiya (2-qism).
10. Джабриев А. Н., Каримов И. О. Некоторые аспекты залогового кредитования в Республике Узбекистан. – 2019.
11. Giyosov, I. K., & Karimov, I. O. TARGETED AND EFFECTIVE USE OF INVESTMENT IN CONSTRUCTION INDUSTRY.
12. www.stat.uz - Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси сайти;



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>